

# 2021-YIL – YOSHLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA AHOLI SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH YILI

# Tong

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N: 1 (67322)  
2021-yil 4-yanvar

# yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O‘zbekiston Respublikasi bolalar va o‘smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

## «PREZIDENT SOVG‘ASI» – BAYRAM TUHFASI

Joriy yilning 29–30-dekabr kunlari «Prezident sovg‘asi» bolajonlarga yetkazildi.

Mamlakatimizdagi barcha Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari, ota-ona qarovisiz qolgan hamda ijtimoiy himoyaga

muhtoj oila farzandlari, shuningdek, ota-onalari Vatan sarhadlarini himoya qilish yo‘lida qurbon bo‘lgan 3–15 yoshdagi bolalarga atalgan 11 000 dona «Prezident sovg‘asi» bolajonlar uchun ajoyib bayram tuhfasi bo‘ldi.



## YANGI O‘ZBEKISTONDA YASHAMOQ BAXTI

**Kuni kecha Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasini efir orqali tinglar ekanman, hayajonga to‘la qalbimda g‘urur va iftixor tuyg‘usi jo‘sh urdi.**

2021-yil mamlakatimizda «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili» deb e‘lon qilinishi, yoshlarga oid davlat siyosatining yanada ustuvorlik kasb etishidan darak beradi. Yurtboshimiz ta‘kidlaganidek, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta‘minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal etuvchi o‘rin tutadi.

Prezidentimiz jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishimizga yanada e‘tibor qaratishimiz lozimligini alohida ta‘kidladilar. Yoshlar o‘rtasida Osiyo

o‘yinlari 2025-yili Toshkent shahrida o‘tkazilishi mamlakatimizga ko‘rsatilgan katta ishonch ekanligini angladim. Hukumatimiz tomonidan biz yoshlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar bizni chuqur bilim olishga, tinimsiz izlanishga, mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga undaydi. Biz yurtimiz ishonchini oqlab, xalqimizga munosib farzand bo‘lishga va‘da beramiz!

**Asal RAVSHANXONOVA,**  
poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 114-umumta‘lim maktabining 8-sinf o‘quvchisi



4-yanvar 2021-yil

Darhaqiqat, umrimizning na-  
faqat har bir kunini, har bir soat,  
daqqa, hatto soniyani hisob-kitob  
qilish, qadriga yetish oqil insonga  
xos fazilatdir. Poyoniga yetgan  
2020-yilimiz tarix zarvarlariga  
insoniyat boshiga tushgan sinovli  
yil sifatida muhrlangan bo'lsa-

**Xoja Abduxoliq G'ijduvoni**  
**hazratlari aytadi: «Vuqufi zamoni» –**  
**o'tayotgan lahzalarni sarhisob qilish. Tolib doimo o'z**  
**ahvolidan xabardor bo'lishi, har bir zamonda o'z holi va**  
**sifati qanday, shukur paytimi, uzr paytimi, buni bilishi kerak.**  
**Har bir lahzasini hisob-kitob qilishi va qadrlashi lozim».**  
**Bu purma'no, durdona fikr har birimiz, ayniqsa, Siz,**  
**aziz o'g'il-qizlarimiz uchun nihoyatda**  
**ahamiyatlidir.**



# VUQUFI ZAMONIY

da, u barchamizga katta saboq berdi, pandemiya, karantin davri bizni sabrli, mehr-oqibatli bo'lishga, tinch, osuda, betashvish, salomatlikda o'tayotgan har bir kunimizning qadriga yetishga, muhtojlarga mehr, saxovat ko'rsatishga o'rgatdi.

Quvonarlisi, yurtimizda joriy qilingan karantin sharoitida ham gazetamiz o'z o'quvchilari qo'liga muntazam ravishda yetib bordi. O'quvchilarning karantin davridagi bo'sh vaqtini mazmunli, foydali o'tishiga hissa qo'shish maqsadida gazetamiz orqali «Dunyo bolalar nigohida» maxsus pochta markalarini chop etish uchun «Yil fasllari» rasmlar ko'rik-tanlovi, «Boyligni bolalikdan asrang!», «Xotira – aziz, qadr – muqaddas», «Mening yangi qahramonim», «Bir makon – bir yo'l», «Zo'r tabassum» kabi insholar va fotolar tanlovlari e'lon qilindi hamda bu tanlovlarda gazetxonlarimiz faol ishtirok etishdi. An'anaga muvofiq g'oliblarni ularning o'zlarini tahsil olayotgan ta'lim maskanlarida tantanali ravishda taqdirladik. Shu asnodan ko'plab o'quvchilar, ustozlar bilan diyorlashdik, diildan suhbatlashdik, gazetamiz haqidagi fikr-mulohazalarini tingladik, takliflarini o'rgandik. Bu ibratli an'anani yangi yilda ham davom ettirish niyatidamiz.

Yangi yil arafasida ko'hna va navqiron Buxoroi sharifda xizmat safarida bo'lganimizda, o'quvchilarning o'z

gazetalari – «Tong yulduzi»ni sevib mutolaa qilishayotganiga guvoh bo'ldik. Viloyat «Barkamol avlod» bolalar maktabi direktori Mavjuda opa Jamolovanning ish stolida «Tong yulduzi» gazetasi taxlamlarini ko'rib, bolalarcha quvondik.

Qarshi shahridagi Abdulla Orpov ijod maktabida bo'lganimizda, o'quvchilar, sevimli gazetamizda e'lon qilinadigan navbatdagi tanlov g'oliblari aynan bizning ijod maktabimiz o'quvchilari bo'lishadi, deya bashorat qildilar. Ijodkor o'quvchilardagi bunday qat'iyatni, o'zlariga bo'lgan ishonchni ko'rib, yanada sevindik.

Vodiy safari chog'ida esa farg'onalik gazetxonlar ajoyib bir tashabbus bilan chiqishdi, ya'ni har bir sinfdan «Tong yulduzi» gazetasi jamlanmasi burchagi tashkil qilishni taklif qilishdi. Xuddi shu taklif sirdaryolik tengdoshingiz, Guliston tumanidagi 7-umumta'lim maktabi o'quvchisi Diyora Misrariyeva muallifligidagi «Gazeta o'qish ham darsdek gap» maqolasi (2020-yil 46-son)da ham bildirilgan edi. Bu taklifdan shunday

**Bahouddin Naqshband hazratlarining bitiklarida:**  
**«Vuqufi zamoni. Solikning o'tkazayotgan vaqtiga hokim bo'lishi, doimo o'z vaqtini sarhisob qilib turishidir. Umrining qaysi qismi yaxshilikka, qay qismi yomonlikka, qaysi qismi behudaga sarflanyapti, shularni bilishi zarur»...**

xulosaga kelishimiz mumkinki, demak, gazetxon o'quvchilarning o'z nashriga befarq emas, gazetani nafaqat o'zlarini, balki sinfdoshlari, maktabdoshlari ham o'qishini xohlashadi. Bu juda yaxshi tashabbus. Qani edi bu taklif so'zidagina emas, amalda ham o'z tasdig'ini topsa. Biz tahririyat xodimlari esa yangi yilda gazetamizni yanada qiziqarliroq, mazmunliroq chiqarish harakatidamiz.

Yana donishmand ulug'larimiz o'gitlariga murojaat qilamiz. Bahouddin Naqshband hazratlarining bitiklarida: «Vuqufi zamoni. Solikning o'tkazayotgan vaqtiga hokim bo'lishi, doimo o'z vaqtini sarhisob qilib turishidir. Umrining qaysi qismi yaxshilikka, qay qismi yomonlikka, qaysi qismi behudaga sarflanyapti, shularni bilishi zarur... Zamon haqida gapirganda, uch zamon

yodimizga keladi: o'tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamon... Darhaqiqat, yaxshimi-yomonmi, o'tgan vaqtning o'tdi. Endi uni ortga qaytarolmaysan. Demak, solik hozirgi onini, vaqtini g'animat bilishi, mavjud imkoniyatdan unumli foydalanishi kerak», deyiladi.

Bu purma'no hikmatlar barchamizning umr yo'llarimizda yo'lchi yulduz bo'lsin, bizni hayotning qadriga yetishga, har bir onidan unumli foydalanishga undab tursin. Yangi 2021-yilimiz yurtimizga xayrli, qutlug' yil bo'lib kelsin!





# YANGI O'ZBEKISTONNING OLTIN OSTONASI

**Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ona tili va adabiyot fanlarini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internatining ochilishi ta'lim tizimida hamda adabiyot olamida ulkan voqea bo'ldi. Bu Muhtaram Prezidentimizning yoshlarga ko'rsatayotgan g'amxo'rligining yaqqol va go'zal namunasidir.**

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi haqiqiy ma'noda ma'rifat maskaniga, ijod maktabiga aylandi. Yosh ijodkorlarga ijod sirlarini o'rgatish maqsadida davrimizning ulug' shoir va yozuvchilari, adiblari, adabiyotshunoslari «Mahorat darslari»ni o'tyaptilar. Ularning ijod sir-asrorlari haqidagi hayotiy fikr va mulohazalari o'quvchilarning dunyoqarashini, mushohada qobiliyatini, bilim salohiyatini, tafakkur olamini boyitib bormoqda.

Maktabda tushgacha dars soatlari, tushdan so'ng to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan, ya'ni dars jarayonlari bu qutlug' maskanda bir kunda o'n ikki soat davom etadi. Ona tili va adabiyot fanini chuqurlashtirib o'qitish bilan birga, o'quvchilarga rus, ingliz, koreys, ispan va turk tillari puxta o'rgatiladi. Shu bilan birga, Guliston davlat universitetining professor-o'qituvchilari ham o'quvchilarga maxsus fanlardan saboq berib, «Mahorat darslari»ni o'tmoqdalar.

Yosh iste'dodlarning she'r, maqola, hikoyalari markaziy nashrlar – «Tong yulduzi», «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «Ma'rifat», «Milliy tiklanish», «Ishonch» gazetalari doimiy ravishda chop etilmoqda. Bir qancha o'quvchilarning ilk she'riy to'plamlari nashr etildi.

Ijod maktabi o'quvchilari bir yil mobaynida Respublika miqyosida o'tkazilgan ko'rik-tanlovlarda g'olib bo'lib, 57 ta faxriy yorliq va I darajali diplomlarni qo'lga kiritdilar.

Viloyatimiz hokimi G'ofurjon Mirzayev ham o'quvchilarning ijod namunalarini doimo kuzatib boradilar. Yosh iste'dodlarni qadrlash, qo'llab-quvvatlash, ularga g'amxo'rlik qilish maqsadida maktabimizga juda ko'p tashrif buyuradilar. Har gal kelganlarida, o'quvchilar bilan dildan suhbat qurib, har bir bolaning orzusi, ijodi, kelajakdagi rejaları bilan qiziqadilar. Ayniqsa, ijod maktabi o'quvchilarining bahribayt mushoiralarini kuzatadilar va qalbi she'riyatga oshno bo'lgan iste'dod sohiblariga rahmat aytib, o'zlari ham Halima opaning she'riyati, adabiyot sohasidagi yangiliklar, viloyatimizdagi adabiy muhit haqida so'zlab

hamda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tomonidan o'tkazilgan «Qadring baland bo'lsin, ona tilim!» insholar ko'rik-tanlovi va fan olimpiadalaridagi faol ishtiroki hamda 1-o'rinni qo'lga kiritganligi uchun 20 nafar o'quvchi planshet va noutbuklar bilan taqdirlandilar.

Ijod maktabida viloyatning ijodkor o'qituvchilari markazi tashkil etilgan bo'lib, 40 nafarga yaqin pedagoglar Sirdaryoda o'ziga xos ijod maktabi borligini keng jamoatchilikka namoyish etmoqdalar.

Bugun Sirdaryoda jo'shqin ijodiy, badiiy hayot barq urmoqda. Sirdaryo iste'dodlar bulugi bo'lib qoldi. Viloyat Kasaba uyushmasi tomonidan ham maktab o'quvchilari bir necha bor rag'batlantirilib, Buxoroi sharifga, qadimiy va navqiron Samarqand shahriga, sharq durdonasi – Xivaga, dunyoning eng go'zal maskanlaridan biri bo'lmish Amirsoy tog' dam olish maskaniga sayohatga yuborildi. Guliston shahri bugungi kunda taniqli shoir, yozuvchi, adabiyotshunoslari keladigan ma'rifat va ma'naviyat maskaniga aylandi. Adabiyotga bo'lgan e'tibor, muhabbat kundan kunga berilib bormoqda. Bir yoshing muborak bo'lsin, aziz maktabim!



beradilar. Shuningdek, maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan «She'r o'qish ham zo'r san'at, bellashuvga marhamat!» ko'rik-tanlovi g'oliblarini faxriy yorliqlar bilan, o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 31 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan viloyat tadbirlarida faol ishtirok etgan besh nafar o'quvchi

**Muhammad ISMOIL,**  
*Halima Xudoyberdiyeva nomidagi  
ijod maktabi direktori*

4-yanvar 2021-yil

# BOLALIK, IJOD

**Sara asarlar muallifi,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi Xurshid  
DO'STMUHAMMADning bolalik  
yillari va ijod olamiga sayohat qildik.**

## Bolalik sog'inchi...

Bolalik kezlirimiz o'tgan asrning 50–60-yillariga to'g'ri kelgan. Qadimiy mahalla, ming yillik qo'ni-qo'shnilar, tor va tuproq ko'chalar... Ahyon-ahyonda qorasi ko'rinib qoladigan avtomashinalar, ot, eshak, tuya qo'shilgan aravalar... Tosh tepish, yong'oq otish, chillak, futbol, quvlashmachoq, bekinmachoq, varrak uchirish, cho'milish... arazlashish, «po'm» chiqish, yarashish... O'sha damlardagi zavq-shavqning o'rmini bosadigan, ularga teng keladigan nima bor? Nima ko'rdik? Nima topdik?

o'g'il-qizlarimizga qarata aytgim kelyapti: Siz O'zbekiston deya atalguvchi ulug'mamlakatning farzandlarisiz. Yoshlikdanoq yaxshi o'qing, birorta hunarning boshini tuting, dunyoni chuqur idrok etishni ko'zlang, hech narsadan kam bo'lmay yashaysiz! Hech bir banda oldida boshingiz xam bo'lmaydi, qisinsiz, o'kinmaysiz. Chunki Siz men orzu qilayotgan va istayotgan INSON bo'lib voyaga yetasizlar, shuning uchun ham hech kimdan kam bo'lmay, emin-erkin, farovon yashashga haqlisiz!

## Birinchi kitobim...

Birinchi kitobim tengqurlarimga qaraganda picha kechroq chop etildi. Nomi «Hovli etagidagi uy». Unga ilk hikoyalar, qissa kiritildi. Ilk mashqlarim gazeta yo jurnal sahifasiga chiqishi osonlik bilan

tib o'tirib, sira tushunolmasdim. Aqlim yetmasdi. Nima sababdan odamlar til topisha olmaydilar? Murosa qilolmaydilar... O'zaro kelishmovchiliklarning ildizi qayerda?

Ichimni o'rtayotgan bu kabi

mayman-ku, – debman bir kuni mahmadonlik qilib.

Shunday ham bo'ldi, onamga, keyinroq otamga qaytarolmagan qarzarlar armonlari, iztiroblari yozuvchilikka muhtalo qilgan, deb o'ylayman...



## Adabiyotga mehr...

savollarni og'iz ochib aytgan emasman, lekin o'ylaganman, o'zimcha chora izlaganman, chora! Urush-janjallarda «mag'lub» tomonga achinardim, ularni himoya qilgim kelardi. Mag'lublik, mazlumlik holatiga tushganlarga yordam qilgim kelardi.

Ota-onam, opa-akalarim tinim bilishmagan, ro'zg'or tebratishning o'zi bo'lmagan. Ko'z o'ngimdan o'chmaydi, nonushta mahali onam hammamizga bitta-bitta chaqmoq qand ulashar edilar, negadir menga ikkita tegardi. Sakkiz-o'n kishi bir katta sopol lagandagi oshga, nonpalovga qo'l cho'zardik. Ko'cha changitib o'yin bilan ovoramiz, onam

ko'rinadilar, ikki qo'llarida og'irdan-og'ir xalta-xulta. Bozordan qayt-yaptilar. «Oyi, nima opkeldiz?!» degancha xaltani titkilashga tushib ketardim.

– Xaltani ol, o'g'lim, qo'lim uzilib tushay dedi...

Onam bir kun bemalol oyoq uzatib o'tirganlarini, biror joyga borib, hordiq chiqarganlarini bilmayman. Cho'k tushib qo'llari, oyoqlarini uqalar edim.

– To'qqizta bola tug'ib nima qilardingiz, men yosh bolaman, baribir sizga hech narsa qilib berol-

70-yillarning oxirlari bo'lsa kerak, tengqurlarimiz orasida xorijiy adabiyotlarga qiziqish ortdi. Ortmadi, qiziqish portlash darajasiga yetdi! Bu portlash nimadan boshlandi?

Birinchiidan, o'zini ziyoli degan, ayniqsa, ijodkorman degan odam o'qishga mukkasidan ketgandi. To'g'risi, o'sha davrda «Guliston» jurnalidan o'tadigani yo'q edi. Ittifoq miqyosida bosiladigan ko'plab gazeta-jurnallarni-ku, asti qo'yaverasiz! Qo'lma-qo'l o'qilardi. So'nggi chaqalarimizga ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy nashrlarni sotib olardik, so'rab-surishtirib olib o'qirdik. Boltiqbo'yi respublikalari, Ozarbayjon, Gruziyada chop etiladigan nashrlarni aytmayisizmi... Kitob gadosi edik.

Gorkiy nomidagi bolalar istirohat bog'idagi (hozirgi «Toshkent kurantlari» orqasida edi) har kungi tushlik suhbatlari, chinakam ma'noda, ijodiy maktabga aylanardi. Katta-kichik yozuvchi, shoir va qalamkashlar gurunigi shu qadar qizg'in tus olardiki... Har bir suhbatda yangi asar o'qigandek bo'lardik. Nomi o'zimizga notanish mualliflar, ularning asarlari o'sha bog'dagi gurunlar chog'ida qulog'imizga chalingan zahoti izlashga tushardik. Yapon adabiyoti, Boltiqbo'yi xalqlari adabiyoti, Lotin Amerikasi adabiyoti degan so'zlarni dastlab o'sha yerda eshitganman. Qulog'imizga chalingan adiblar yozgan asarlarni shahar-



Hech nima!

Bolaligimizdan buyuk va betakror samimiylik qoldi yodgorlik bo'lib.

Barcha qo'ni-qo'shnilar asosan, o'rtahol, mayda hunarmandchilik ortidan ro'zg'or tebratadigan oilalar, kattalarni bilmasdik, lekin biz bolalardan baxtiyorroq odamlar yo'q edi, dunyoda!

Kitob zavq-shavq bilan o'qilishi kerak, degan gapni ko'p takrorlaymiz. Inkor etmayman, lekin uni sal boshqacharoq aytgim keladi: odam zavq-shavq bilan yashamog'i kerak! Hamon bu yorug' olamga inson bo'lib keldikmi, kelinglar, hayotimizni zavq-shavqqa to'ldirib yashaylik. Toki qolgan barcha orzu-havaslarimiz, amallarimiz shundan boshlansin. Fursatdan foydalanib, «Tong yulduzi» gazetxonlari bo'lmish

bo'lmagan. Yillab qatnaganman tahririyatlarga. Tasavvur qilyapsizmi, yillab! Bir og'iz «ha» yoki «yo'q» degan javobni eshitishga zor edim. Birinchi hikoyam «Ijizat» – «Fan va turmush» (o'sha tahririyatda ishlar edim), ikkinchisi «Kiova quyoshi» – «Guliston» jurnallarida, uchinchi hikoyam «Hovli etagidagi uy» – «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida bosilgan.

Mashaqqat chekkanimni eslolmayman, chunki ijod yo'lidagi har qanday mashaqqat men uchun rohat-farog'at edi.

Bolaligimdan juda kuzatuvchan bo'lganman-da. Katta oilaning kenjasi bo'lganimdan kattalar orasidagi turli munosabatlarni, kezi kelganda, ziddiyatlar, to'qnashuvlar, mojarolarni bir chekkada kuza-

**Gorkiy nomidagi bolalar istirohat bog'idagi (hozirgi «Toshkent kurantlari» orqasida edi) har kungi tushlik suhbatlari, chinakam ma'noda, ijodiy maktabga aylanardi. Katta-kichik yozuvchi, shoir va qalamkashlar gurunigi shu qadar qizg'in tus olardiki... Har bir suhbatda yangi asar o'qigandek bo'lardik.**

# VA... DUNYO

4-yanvar 2021-yil

ning turli burchaklarida bo'ladigan yakshanbalik kitob bozorlaridan izlab-istab yurardik. Oh, u qaytmas damlar! O'sha adabiy muhitni, o'sha kitobxonlik «kasalligi»ni sog'inaman. Vaholanki, hech kimda majburiyat yo'q edi, istak bor edi, xolos, istak!

Yapon Akutagava Ryunoske-ning nomini eshitdim. Ming yillik yapon adabiyoti-ni, hikoyanavisligini mutlaqo boshqa o'zanga burib yuborgan adib. Kitobini topdim. Rus tilida. O'qish va uqish nihoyatda murakkab. Lug'at yordamida o'qidim. Va «Rasyomon darvozasi» hikoyasini o'zbekchalashtirish-ga jur'at etdim. Xitoy, Yevropa adabiyotiga qiziqdim, orada F. Dostoyevskiyning «Jinoyat va jazo» romani Ibrohim G'afurov tomonidan tarjima qilindi-yu, shovshuv bo'lib ketdi. So'zlab bersam, hozirgi yoshlar yo tasavvur qilolmaydilar yoki ishonmaydilar. «Jinoyat va jazo» haqidagi gurun-ga qo'shilolmaslik isnod edi, isnod!

Keyin «Telba» chiqdi. Yana shovshuv! Taqqos uchun aytadigan bo'lsam, o'shanday shovshuv Tohir Malikning «Shaytanat»ida takrorlandi, xolos.

Shu orada o'zimizda Temur Po'latov ismli yozuvchi borligidan xabar topdim. Qizig'i, bu adib va uning asarlari boya men eslaganim bog'dagi tushlik chog'larida ham ko'pda tilga olinmasdi. Rus tilida ijod qilgani sabablimi, bilmadim. Avval Temur akaning o'zbekchaga tarjima qilingan asarlarini o'qidim, to'g'risi, qanoat hosil qilmadim, keyin uning asarlarini asl nusxada o'qishga kirishdim.

Lo'nda aytadigan bo'lsam, meni qalamga oshno etgan, adabiyotga chirmab-bog'lab tashlagan, umuman, inson sifatidagi dunyoqarashimni ag'dar-to'ntar qilib yuborgan uch adib: Fyodor Dostoyevskiy, Frans Kafka va Temur Po'latov. Bu ro'yxatga Marsel Prustni qo'shish mumkin. Albatta, ko'plab ilmiy-ommabop, shuningdek, falsafa, tarix, psixologiya va hokazo yo'nalishdagi adabiyotlarni oxirigacha sanashning iloji yo'q. Lekin, ta'kidlash kerak bo'lsa, Temur Po'latovning qalamiga mansub «Buxoro xonadoni kechmishlari», «G'oyibning ikkinchi safari», «Bo'lak manzil-gohlar», «Mulk», «Jaloliddinning so'nggi suhbatdoshi» kabi hikoya, qissa va romanlarini hozirgacha o'zim o'qigan eng o'lmas asar-

lar qatorida sanab o'tishdan, o'zimizning zamindan ana shunday jahon adabiyotiga tatigulik asarlar bitgan adib chiqqanidan faxrlanaman. «Yetti huzur-halovat va qirq qayg'u-alam», «Buxoro xonadoni kechmishlari» trilogiyasining uchinchi kitobi mening tarjimamda bosilgan.

### Safar taassurotlari...

Oh, u qaytmas damlar! O'sha adabiy muhitni, o'sha kitobxonlik «kasalligi»ni sog'inaman. Vaholanki, hech kimda majburiyat yo'q edi, istak bor edi, xolos, istak!

AQSHga bir necha bor safar qilganman. Odatda shtatma-shtat kezib tomosha qilaman, kutubxonada o'tiraman. Ko'chada, bog'da, oshxona-restoranda, jamoat transportida, plyajda soatlab odamlarni kuzataman. Son-sanoqsiz odamlar o'ynab-kulib, yashab yuribdi. Hech kim hech kimga daxl qilayotgani yo'q. Tasavvur qilaman: o'sha joylarda yugurishib-quvalashib yurgan bolakaylarning qo'liga «Gulxan»ni, «G'uncha»ni, «Tong yulduzi»ni tutqazsam, qiziqib, ko'z uzmay o'qisharmikan? Afsus, til bilganimda, o'zim shunday tajriba o'tkazardim.

Birinchisi safar borganimda, bir kutubxonaga a'zo bo'ldim. Buning uchun pasportim nusxasini, telefon raqamimni berdim, vassalom. Kutubxonadan istagancha foydalanish huquqiga egaman. Qo'ltiq-qo'ltiq kitobni uyga olib ketaman. Uzoq'i bilan ikki haftaga ruxsat beriladi. O'qib ulgurmagan bo'lsangiz, muddatini cho'zdirasiz, xolos. Javondan topilmagan kitobni so'rab, talab-noma berasiz, uzog'i bilan ikki kunda telefonga «Sizni falon kitob kutmoqda» degan mazmunda xabar keladi.

O'zim ko'p qatnaydigan kutubxonadan 10–15 chaqirim naridagi boshqa bir kutubxonani izlab bordim. A'zo bo'lish uchun pasportimni ko'rsatdim. Kutubxonachi ayol kompyuterni titkilab qaradi-da, «Pasportingizning hojati yo'q, sizning ism-sharifingiz bizning ro'yxatimizda qayd etilgan, bema'lol foydalanavering», dedi. Bu kutubxonada narigisidan boyroq ekan. Jonim kirdi. Toshkentda

topilmagan kitoblarni hech bir muammosiz olib o'qidim. Keyingi borishimda mashhur Jeyms Joysning ijodiga bag'ishlangan barcha nashrlarni (rus tilidagisi, albatta) o'qib, konspektlashtirdim. Hikoyalari jamlangan, bir zamonlar Moskvada chop etilgan kitobini Toshkentda topolmagandim. So'radim. Izlashdi. «U adibning asarlarini bizda u qadar ommalashmagan, — dedi kutubxonachi ayol. — Negadir bizda topilmadi». Attang, dedim-qo'ydim. Ketdim.

Oradan besh kun o'tdi chog'i. Telefonimga xabar keldi: «Joysning siz istagan kitobi sizni kutmoqda». G'izillab yetib bordim. Ayol mendan ko'ra ko'proq mamnuniyat bilan ikki qo'llab kitobni tutqazdi, so'ng bo'lgan voqeani menga tushuntirdi:

— Bu kitob falon joydagi kutubxonada borligini aniqladik, lekin u kutubxonada o't o'chiruvchilar tomonidan vaqtincha yopib qo'yil-

dan qanchalik boshim osmonga yetgan bo'lsa, kutubxonachi ayol o'z xizmat vazifasini sidqidildan ado etganidan shunchalik sevindi.

### O'lmas an'ana...

Ustoz-shogird an'anasi... Dunyo mana shu an'ana asosidagina rivojlanadi, taraqqiy etadi. Ayni paytda jamiyatimizda ko'zga tashlanayotgan barcha (!) katta-kichik muammolarning, kemtikliklarning asosiy sabablaridan biri ustoz-shogirdlik an'anasi izdan chiqqaniga borib taqaladi. Indallosini aytdagan bo'lsam, ustoz ko'rgan shogird aslo kam bo'lmaydi: inson sifatida ham, kasb-kor egasi sifatida ham.

Zamonaviy dunyoda jurnalistning o'rni, ahamiyati har qachongidan ortib boraveradi. Chunki jamiyatimiz ochiq muloqot jamiyatiga aylanib bormoqda. «Mammiy muloqotga keng imkoniyat yaratilayotgan muhitda axborot bilan ishlovchi odam asosiy figuraga



gan ekan. Biz o't o'chirish idorasi rahbariyatiga murojaat qildik, o't o'chiruvchilar kutubxonani bir soatga ochishga ijozat berishdi va J. Joysning mana shu kitobini olib, siz uchun keltirdik.

Ana beminnat xizmat, mana astoydil xizmat. Mening kimligimni bilmasa, u yurtning fuqarosi bo'lsam, kitob topilmagan bo'lsa, men shikoyat qilganim yo'q, ortiqcha talabnoma yozmadim. Nari borsa, «Bizda u kitob yo'q», deb qutulsa bo'ladigan. Yo'q, ularda bunday tushuncha yo'q. Men noyob kitob topilgani-

aylanadi. Shundan kelib chiqib aytсам, jurnalist, birinchi navbatda, muloqot-munosabat madaniyatini egallamog'i kerak. U har qanday inson bilan til topishmog'i darkor. Ko'p o'qishi, xotirasini kuchaytirishi zarur. Yozma va og'zaki nutqini tinimsiz takomillashtirmog'i uning baxti, omadi, kasbiy muvaffaqiyatini belgilaydi. Yana bir gap: jurnalistga xos bo'lgan barcha fazilatlar, yig'itdir-qizdir, hammalarining shaxsiy-oilaviy hayotlarida juda-juda asqotadi.

Umida SATTOROVA yozib oldi

**TAHRIRIYATDAN:** Asarlari orqali minglab muxlislar qalbidan o'rin egallagan jonkuyar jurnalist, mohir tarjimon, ustoz yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadni qutlug' 70 yoshni qarshilayotganligi munosabati bilan gazetxonlar nomidan samimiy qutlaymiz!



4-yanvar 2021-yil

## QISH ZAVQI

Zavq ulashib,  
Ko'z qamashib,  
Yog'ar pag'a-pag'a qor.  
Har bir uchqun,  
To'qlik uchun,  
Sepin yoyar har nahor.

Oppoq dala,  
Go'zal palla,  
Zavq bag'ishlar insonga.  
O'ynab-uchib,  
Yerni quchib,  
Baxt keltirar dehqonga.

Shox, butoqlar,  
Barg, yaproqlar  
Kumush g'ilof ichida.  
Nur yaltirar,  
Dur yaltirar,  
Daraxtlarning uchida.

Tun cho'zilar,  
Qo'y, qo'zilar,  
Yalamaydi murabbo.  
Sovg'a olib,  
Biroz tolib,  
Kelayapti Qorbobo.

Dildora ammamning qizi.  
Uning kasal bo'lganini eshi-  
tib, ko'rgani bordim.  
Negadir ko'rinmasdi.  
Ammamning ham  
ko'rinishi g'alati,  
chorpoya ustida  
tizzalarini quchoqla-  
gancha bujmayib,  
go'yo qotib qol-  
gan edi. Men  
yaqinroq borib,  
salom berdim.  
U boshini ilkis  
ko'tarib, meni  
ko'rgan zahoti  
ko'z  
yoshlarini  
ko'rsat-  
maslik  
uchun  
kaftlari  
bilan apil-tapil  
artdi.



## AMMAMNING QUVONCHI

(Hikoya)

– Nega to'xtab qolding,  
o'rgilay? Bu yoqqa chiq. Xa-  
yol bilan kelganingni sezmay  
qopman. O'zing sog'-omon  
yuribsanmi?

– Yaxshi. Dildora tuzaldimi?  
Ammamning quvonchi so'nib,  
ko'zlari yana qisildi.

– Bilmayman. Bugun borol-  
ganim yo'q. Tuni bilan yo'limga  
termilib chiqqanini o'ylab, adoyi  
tamom bo'lib turibman. Otasi  
tirik bo'lganda...

Ammamning ko'zlari nam-  
lanib, tovushi bo'g'ildi.

– Yo'lkiram bo'lgandayam,  
qarab turmasdim.

Ammamni ahvoli naqadar

ayanchli bo'lmasin, yordam  
berishga o'z edim. Shu payt  
xayolimga nima kelganini  
o'ylab turmay uyimiz tomonga  
yugurdim. Maktabda och  
qolmasligim uchun  
oyim beradigan  
pullardan teja-  
ganlarimni olib,  
izimga qaytdim.  
Lekin ammam  
olmadi:

– Biz uchun  
och-nahor yur-  
ma, o'rgilay, bir  
ilojini qilarman,  
– dedi.

Men  
ko'nma-  
dim. Bi-  
sotimni  
qo'yar-

da-qo'ymay  
cho'ntagiga soldim. Ammam  
oxiri rozi bo'lib, quchib yuz-  
ko'zlarimdan qayta-qayta o'pib  
qo'ydi.



Quvonchbek SHUHRAT o'g'li,  
Suxondaryo viloyati, Denov  
tumanidagi 64-umumta'lim  
maktabining 4-sinf o'quvchisi

Salim ASHUR



## YANGI YIL

Qorbobo kiygan kovush,  
Keladi g'arch-g'urch tovush,  
Ko'k tog'lardan pastga tush,  
Yangi yil, Yangi yil, Yangi yil...

Hamma shoshadi uyga,  
Soat shay yorug' to'yga,  
Mayin chayqalar kuyga –  
Yangi yil, Yangi yil, Yangi yil...

Yana bir, ikki qadam,  
O'zgarar birdan olam,  
O'zgaramiz sen, men ham –  
Yangi yil, Yangi yil, Yangi yil...

Kir po'stinni bugun yech,  
G'am ko'rmaylik endi hech,  
Kelaqolgil bo'lmay kech –  
Yangi yil, Yangi yil, Yangi yil...

Tursunboy ADASHBOYEV

## QANTAK O'RIK VA «JIVACHKA»LAR



Qo'shnimiz Qumri momo,  
Farzandlar ardog'ida.  
Ko'rpa qavib o'tirar,  
Shiyponda chorbog'ida.

Lunjida qantak o'rik,  
Ish bilan band xotirjam.  
– «Jivachka»dan bering, – der,  
Nabirasi Botirjon.

– O'g'lim, bu saqich emas,  
Mazali qantak o'rik.  
– Qanaqa qantak o'rik?  
– Asalday, qandday o'rik.



Qantak o'rik chaynalмай,  
Ohista shivirladi.  
Konfetlar, «jivachka»lar,  
Tishingni yemiradi.

Momo kenja Botirni,  
Duo qilgach munosib.  
Qantak o'rikdan olib,  
Kaftiga qo'ydi bosib.

## BOLALARNING SHOIRLARI

Bolalarning shoirlari,  
Qarisa ham qartaymaydi.  
Bolalarning shoirlari,  
Maqtasa ham taltaymaydi.

Shuhrat izlab, hurmat izlab,  
Chiranmaydi, urinmaydi.  
Radioda gapirmaydi,  
Ekranlarda ko'rinmaydi.

Bolalarning shoirlari,  
Doim bola bo'lib yashar.

Dabdurustdan bilolmaysiz,  
Ular o'zi necha yashar.

Bolalarday dangal so'zlik,  
Olam uzra topilmaydi.  
Bolalarga she'r yozganlar,  
Yolg'on-yashiq gapirmaydi.

Bolalarning adiblari,  
Habib bo'lib qoladilar.  
Mukofotning o'rniga ham,  
Faqat rahmat oladilar.

## FAQAT «BESH» OLISH KERAK

Bunday go'zal Vatanda,  
Yashnab, yayrab yuraman.  
Oilam xizmatiga,  
Har dam tayyor turaman.

Maktabim chorlar doim,  
Katta-kichik yoshgacha.  
Besh olgin, deydi oyim,  
A'llochilik boshqacha.

Ko'nglim to'q besh bahodan,  
Savollarga tayyorman.  
Hattoki «Kamalak»da,  
Viloyatda sardorman.



Bunday go'zal Vatanga,  
Vafodor qolish kerak.  
Yaxshi o'qib maktabda,  
Faqat besh olish kerak.



Marjona IBODULLAYEVA,  
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi  
13-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi

Lesson 1 Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

# Snowman Word Search



COAL SNOW  
CARROT STICKS  
SCARF TOP HAT

E O Y C Q V B  
T O R R A C T  
S K C I T S O  
M D D C Q G P  
C S N O W R H  
K F R A C S A  
F C M L V W T



I was known to Greek philosophers a thousand years ago, I have numbers all in a line, and I can tell you if rain will turn to snow. What am I?

We can be made of leather or can be made of wool, we come in pairs and keep you from cold. What am I?

I am made of plastic or metal, I am used for play or for work, and you'll usually see me in a sandbox but I am mostly out in the winter months. What am I?


You can start by making a roll then you can mold me, put a scarf on my neck and even a couple of coal. What am I?



Inson 60 yoshdan oshganda ta'm bilish xususiyatini 50 foizini yo'qotar ekan.

4-yanvar 2021-yil

# BILASIZMI?..



Kishi biror so'z yoki jumlani talaffuz qilishi uchun 100 ga yaqin muskullar harakatga tushar ekan.

Inson miyasi og'riqni sezmaydi, negaki, miyada og'riqni his qiluvchi retseptorlar mavjud emas.

Zuhra NISHONOVA tayyorladi

Bilasizmi, bolajonlar, inson ko'zlarining vazni 8 grammni tashkil qilib, uning hajmi o'zgar-mas ekan. U bilan eng murakkab fotoapparatni taqqoslab bo'lmaydi. Chunki ko'z 10 milliondan ortiq rangni ajrata oladi.

Har bir insonning barmoq izi va til izi takrorlanmas ekan.

Inson tanasidagi eng baquv-vat suyak bu jag' suyagidir.

Inson aksirganda chiqadigan havo tomchilari soatiga 160 kilo-metr tezlikda harakatlanar ekan.

Pazanda qizga!



Bugun sizga taqdim etmoqchi bo'lgan retseptimiz shokoladli kruassanlar, deb ataladi. Oson tayyorlanadigan shirinligimiz oila a'zolaringizga xush yoqishi tabiiy. Bu retseptni ham yon daftaringizga yozib qo'yish yodingizdan chiqmasin.

## SHOKOLADLI KRUASSANLAR

Kerakli masalliqalar:

1 kosa sut yoki suv, 1 choy-qoshiq drojja, yarim st. shakar, 1 chimdim tuz, ta'bga ko'ra un va kakao.

Nachinka:

1 ta plitka shokolad, 50-100 gr margarin.

Bezak uchun:

Shakarli qiyom, kokos qirindisi.

Tayyorlanishi:

Illiq sutga shakar, drojja, tuz, kakao va un solib, qo'lga yopishmaydigan yumshoq xamir qoriladi. Oshirish uchun 1 - 2 soatga iliq joyga qo'yiladi.

Tayyor oshgan xamir yoyiladi.



Xamir ustiga margarin qirg'ichdan o'tkaziladi. Pichoqda 12-15 bo'lakka bo'linadi. Kesilgan xamirlarning chetiga 1 donadan shokolad qo'yib chiqiladi. Xuddi rogalik o'ralgani kabi o'raladi. Quruq listga terib, qizigan gaz pechida 30-35 daqiqa pishirib olinadi. Issiqligida siropga botirib olinib, kokos qirindisi sepiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

## BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

### «YANGI YIL» TOPQIRLIK MASHQLARI

Quyida ta'riflari bayon etilgan nomlar «Nav» so'zi bilan boshlanadi. Ularning to'liq atalishini topib, qatorlarga yozish bilan mashqni hal eting.

1. O'zbek xalq maqomi. 2. Bahoriy ayyom. 3. Respublikamiz-

dagi viloyat. 4. Qadimda harbiy xizmatkor, askar. 5. Qatorda ish-g'ol etilgan o'rin. 6. Futbol jamoasi. 7. Avji kuchga to'lgan yigit. 8. Yosh daraxt. 9. Ildizi shifobaxsh, manzarali o'simlik. 10. Piskom daryosining o'ng irmog'i, soy.

Mashqni hal etgandan so'ng, shaklning o'ng tomonidagi raqamlar juftini (birinchisi so'z, ikkinchisi harf tartibini anglatadi) javoblardagi harflar bilan almashtirish orqali yana bir so'zni bilib oling.

1	N	A	V				1/1	4/5	2/3
2	N	A	V				7/5	9/7	4/5
3	N	A	V					5/6	10/7
4	N	A	V					8/5	3/6
5	N	A	V						5/5
6	N	A	V						
7	N	A	V						
8	N	A	V						
9	N	A	V						
10	N	A	V						

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

4-yanvar 2021-yil

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

# Tong yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

1929 **92** 2021  
yoshda!



## 2021-yil uchun

Nashr ko'rsatkichi  
**198**

### obuna bo'lishga shoshiling!

Nashrimizga «O'zbekiston pochta» AJ va «Matbuot tarqatuvchi» AKning hududiy filiallarida obuna bo'lishingiz mumkin. Shuningdek, Siz uchun yana bir yangilik! «Tong yulduzi» gazetasi mobil ilovasi ishga tushdi.

Mazkur ilovani Play Marketdan yuklab olib, mutolaani istagan vaqtda amalga oshirish uchun **Payme** va **CLICK** to'lov tizimlari orqali obuna bo'lishni unutmang!

# 2021

Yanvar

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
				1	2	3
4	5	6	7	8	9	10
11	12	13	14	15	16	17
18	19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30	31

Fevral

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28

Mart

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30	31				

Aprel

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
			1	2	3	4
5	6	7	8	9	10	11
12	13	14	15	16	17	18
19	20	21	22	23	24	25
26	27	28	29	30		

May

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
				1	2	
3	4	5	6	7	8	9
10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23
24	25	26	27	28	29	30
31						

Iyun

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
1	2	3	4	5	6	
7	8	9	10	11	12	13
14	15	16	17	18	19	20
21	22	23	24	25	26	27
28	29	30				

Iyul

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
			1	2	3	4
5	6	7	8	9	10	11
12	13	14	15	16	17	18
19	20	21	22	23	24	25
26	27	28	29	30	31	

Avqust

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30	31				

Sentyabr

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
6	7	8	9	10	11	12
13	14	15	16	17	18	19
20	21	22	23	24	25	26
27	28	29	30			

Oktyabr

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
				1	2	3
4	5	6	7	8	9	10
11	12	13	14	15	16	17
18	19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30	31

Noyabr

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30					

Dekabr

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
			1	2	3	4
5	6	7	8	9	10	11
12	13	14	15	16	17	18
19	20	21	22	23	24	25
26	27	28	29	30	31	

Manzilimiz: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100 011. Tel./faks: (0-371) 244-63-08  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz), [tongyulduzi1929@umail.uz](mailto:tongyulduzi1929@umail.uz)  
Telegram: [t.me/tongyulduzi](https://t.me/tongyulduzi)

Yangi yilda biz bilan  
birga bo'ling!

**BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70**



**Muassis:**

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

**Bosh muharrir**  
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**

Dilshod KENJAYEV,  
Alisher S'ADULLAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruz JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**

Nodira NAZAROVA  
**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-xonasida chop etildi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
e-mail: [tongyulduzi1929@umail.uz](mailto:tongyulduzi1929@umail.uz)  
telegram: [t.me/tongyulduzi](https://t.me/tongyulduzi)  
Adadi - 2013  
Buyurtma - V-4496

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Shaki A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti - 18:00  
Topshirildi - 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08

